



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



IJTIMOIIY ISHNING FAOLIYAT TURI SIFATIDA YUZAGA KELISHINING TARIXIIY ASOSLARI XAYRIYA VA DINIIY ETIQOD.

Sulaymonova Go'zal Samad qizi

SamDU talabasi

Annotatsiya . *Ushbu maqolada ijtimoiy ishning yuzaga kelishi va ijtimoiy ish faoliyat sifatida mamlakatlarda tarqala boshlashi, shuningdek bu faoliyat dunyoviy va diniy qarashlar bilan ham uzviy bog'liqligi haqida fikirlar bayon etiladi.*

Kalit so'zlar. *Obyekt, predmet, ish dunyo, etiqod, fan, vazifa, mamlakat, tarix, tadqiqot, xayriya, yordam, oila, pedagogika, gumanistik, modellari,*

Kirish.

Bugungi kunda ijtimoiy ish faoliyati yuksalish darajasiga yetmoqda Bu faoliyatning keng tarmoqli va keng manoli ekanligi haqida turli xil qarashlar mavjud. Misol uchun ijtimoiy ishni o'ziga tarif beraylik Ijtimoiy ish tushunchasi juda qadim zamonlarda vujudga kelgan bo'lib, mehr-shavqat, insonning diniy qarzi, ehtiyojmand insonlarga gumanitar xizmat ko'rsatish tizimi sifatida mavjud bo'lgan. Faqatgina hozirgi taraqqiy davrga kelibgina maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan mustaqil kasb sifatida tan olindi. Bundan tashqari jamiyat taraqqiyoti uchun ijtimoiy ish faoliyati bo'yicha. Butun dunyoda qabul qilingan ta'rifi quyidagicha: Ijtimoiy ish insonga insoniy ya'ni gumanistik munosabatda bo'lishni anglatibgina qolmay insonlarning ijtimoiy muammolarini yechishga ham qaratilgan. Turli xil mamlakatlarda fani o'rganish orqali millatining dinini, etiqodini, o'rganish mumkin. G'arbda ijtimoiy ishning kasb va ilmiy faoliyat sifatida vujudga kelishi tarixi, Yevropa va AQSHda aholini ijtimoiy ta'minlash modellari, ularda aholining turli qatlamlariga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmat turlari o'rganiladi. Shunday qilib ijtimoiy ish faoliyati haqida qisqacha tushunchalar paydo bo'la boshladi .Qadimda qabila ko'rinishida yashagan insonlar o'rtasida o'zaro yordam, mehr muruvat ko'rsatish qo'ldan kelgaquncha iqtisodiy yordam berish holatlari kuzatilgan. Shunday holatlar natijasida ijtimoiy sh kasb sifatida qaraldi. Ijtimoiy ish sohasini kasb sifatida tan oladigan bo'lsak, ijtimoiy faoliyatning buzilish holatlarida shaxs, inson, oila yoki jamoaning ichki va tashqi resurslaridan foydalanish jarayonlarini aniq bir tartibga soluvchi qonunlar to'g'risida ma'lumot beruvchi ilmiy bilimlar kasbidir. Ijtimoiy ishning faoliyat ham kasb sifatida yuzaga kelgan metodlar o'rganilayotgan obyektning mohiyati va qonuniyatlaridan kelib chiqib, borliqni amaliy va nazariy o'zlashtirish usullarini o'z ichiga olgan . Keyinchalik zamon taraqqiyoti natijasida ijtimoiy pedagogik darajasiga yetdi bu esa ijtimoiy holatning bir sohasi bo'lib, u metodlarni insonlarda qo'llaniladigan tarbiyalash va o'qitishning an'anaviy metodlariga tayanamiz, bundan tashqari boshqa tomondan ijtimoiy ta'lim va ijtimoiy tarbiya , ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy faoliyat bilan o'zgarib bormoqda. Yana shuni yodda tutish kerakki, buning diqqat markazida ijtimoiy ish yo'nalishlari va uni



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



tashkil qilgan insonlar turadi. Bunday vaqtda ijtimoiylashish jarayonini hal qilishga yordam beradi. Ijtimoiy pedagogika aholi qatlamlarining ijtimoiy muammolariga bevosita va bilvosita yordam ko‘rsatishni taminlaydi. U qandaydir qisqa muddatli vazifalarni bajarilishi yoki, muammo bilan uzoq vaqt davomida sdamarali ishlashi mumkinligini hisobga olamiz. Ijtimoiy pedagogik metodlar o‘tkazish orqali zaif insonlarning ongi, xulqi, his-tuyg‘ulariga maqsadga muvofiq ta’sir o‘tkazilish hamda uni o‘rab turgan ijtimoiy muhitni yaxshilashini taminlashga yordam beradi.

Hozirgi kunda ijtimoiy ish faoliyatini rivojlantirish va yuksaltirish to‘g‘risidagi ko‘pgina qarorlar va qonunlar qabul qilinmoqda misol uchun Kodeksda keltirilgan 8 bob, 38 moddasida keltirib o‘tilgan “Ijtimoiy ish to‘g‘risida” qonunga muvofiq - deinstiutsializatsiya, ijtimoiy ish, ijtimoiy xodim, ijtimoiy xizmat yordamchi xodimlari, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy xodim axloq kodeksi, ijtimoiy ish amaliyoti standarti, paraprofessional ijtimoiy xodimlar, faoliyati davlat tomonidan kafolatlaniladi. Ijtimoiy xodim faoliyati - ijtimoiy xodim vazifalari, aholi farovonligi va muammosini hal etish borasidagi ijtimoiy ish, ta’lim muassasalari tizimida (maktabgacha, maktab, kasb-hunar) ijtimoiy ish, sog‘liqni saqlash, tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish, huquqni muhofaza qilish sohalardagi ijtimoiy ish, nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ijtimoiy ish, mahalliy hamjamiyatdagi ijtimoiy ish, internat muassasalarida ijtimoiy ish, aholi turli toifalari bilan ijtimoiy ish, ijtimoiy xizmatlar oluvchilar huquq va majburiyatlari, ijtimoiy ish shakllari, turlari va boshqalar keltirilgan.

Xayriya va diniy etiqodlari ham ijtimoiy ish faoliyati bilan uzviy bog‘liqligi diniy va dunyoviy bilimlar asosida vujudga kelgan. Ijtimoiy ish ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan javob sifatida qabul qilish an’anasi bor. Biroq bu ishning ildizlari turli xalqlarning uzoq tarixiga, odamlar boshqa odamlarning taqdiri uchun axloqiy majburiyat olgan davrlarga borib taqaladi. Ijtimoiy ish an’analarining dunyo dinlaridagi tarixiy ildizlarini osongina topish mumkin: yahudiylarda - “tsedaka”, xristianlarda - “xayriya”, “zakot” esa islom dinining besh arkonidan biridir. Bunday qarash dinning (I.N.Yablokovga ko‘ra) dunyoqarash, kompensator, kommunikativ, regulyativ, madaniy translyasiya va boshqa funksiyalari ijtimoiy hayotni yaxshilashiga ham tasir ko‘rsatadi deb fikr yuritadi. Din o‘zining dunyoqarash funksiyasini avvalo o‘zidagi insonga, jamiyatga, tabiatga nisbatan mavjud qarashlari orqali amalga oshiriladi. Din dunyoni tushunish (dunyoni umuman va undagi alohida (hodisalar va jarayonlarni) tushuntirish, dunyoni hissiy qabul qilish (dunyoni sezgilar va idrokda aks ettirish), dunyoni his qilish (emotsional qabul qilish yoki rad qilish), dunyoga munosabat (baholash) va h.k. Hayotga mazmun bag‘ishlash dinga ishonuvchilar uchun hech bo‘lmasa tasavvurlarida cheklangan doiradan chiqish, yorqin kelajakka, farovonlikka erishish, azob-uqubat, baxtsizliklar, yolg‘izlik, axloqsizlik va shu kab illatlardan qutulishga yordam beradi. Din kompensator funksiyani bajarar ekan, odamlarni tartib intizomga chaqiradi.

Ijtimoiy ish tarixi kursini davriylashtirishda bir qator muammolar vujudga keladi: ijtimoiy yordam ko‘rsatish amaliyoti qachondan boshlangan, Bunday tushunchalar





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



o'zgaruvchanlik dinamikasi, tarixiylikning mazkur tushunchaga nisbatan o'ziga xosligibilan ajralib turadi. Bir qatlamning ikkinchi bir qatlamga turli xildagi yordam va himoya qilish jarayoni, bu madaniy-tarixiy jamiyatda madad va o'zaro yordam ko'rsatish jarayoni sifatida ko'riladi. Har bir bosqichdagi o'zgarish ijtimoiy yordam ko'rsatish instituti ob'ekti va sub'ekti, haqida malumotlar berilib hayotga moslashib borada. Zamonaviy adabiyotlarda xorijda ijtimoiy ish tarixi besh bosqichga bo'linib o'rganiladi :

1. Xayr-ehsonning arxaik davri (birinchi quldorlik davlatlari tashkil topgan davrga bo'lgan davr mil. avv. 3ming yillik oxiri – 2 ming yillikning birinchi yarmi).

2. Filantrop davri (taxminan mil.avv. 5 asrgacha)

3. Jamoaviy(cherkov, jamoa) xayr-ehson davri (16 asr boshlarigacha).

4. Davlat xayr-ehson davri (19 asr oxiri 20 asr boshlarigacha)

Ilg'or fikrlar va qilinayotgan amallar orqali ijtimoiy ish kasb sifatida dunyoni qozonmoqda '- deb aytadi. Mashhur olim Jozef Krins.

Jozef Krinsning "Ilg'or fikrlar va qilinayotgan amallar orqali ijtimoiy ish kasb sifatida dunyoni qozonmoqda" degan gapi, ijtimoiy ish va xayr-ehson faoliyatining tarixi va rivojini chuqur anglashga yordam beradi. Xayr-ehsonning arxaik davridan tortib, davlat xayr-ehson davrigacha bo'lgan jarayonlar ijtimoiy adolat, yordam va o'zaro mas'uliyatni shakllantirgan. Dastlab, xayr-ehsonlik shaxsiy tashabbus sifatida bo'lsa, keyinchalik u ijtimoiy va davlat mexanizmlarida mustahkam o'rin egalladi. Krinsning fikricha, ijtimoiy ish kasbi nafaqat alohida yordam ko'rsatish, balki jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish, adolat va tenglikni ta'minlashga qaratilgan ilg'or yondashuvlarni ilgari surishga asoslanadi. Bunda, xayr-ehsonning turli shakllari orqali insonlar o'zaro yordam va hamjihatlikni kuchaytirib, ijtimoiy ishning eng yuqori darajasiga – ijtimoiy adolat va barqarorlikka erishadilar.

Xulosa .

Ijtimoiy ishning shakllanishida xayriya an'analari va diniy e'tiqodlar muhim tarixiy asos bo'lib xizmat qilganligi, jamiyatdagi adolat, rahm-shafqat va yordam tushunchalarining rivojlanishiga turtki bo'lgan. Dastlab, ehtiyojmandlarga yordam ko'rsatish ko'proq diniy majburiyat sifatida qaralgan va ko'plab diniy ta'limotlarda bu amallarni bajarish insonning ma'naviy saviyasini oshirishga yordam berishi ta'kidlangan. Masalan, nasroniylikda "ko'mak berish" va "ehtyojmandlarga yordam qilish" hamdardlik va saxovatning belgilari sifatida tasavvur qilingan, islomda esa sadaqa va zakot, musulmonlar uchun jamiyatdagi ehtiyojmandlarga yordam berishning muhim usullari sifatida belgilangan. Bu diniy e'tiqodlar jamiyatda o'zaro yordam, mas'uliyat va adolatga asoslangan madaniyatning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Vaqt o'tishi bilan, aynan bu qadriyatlar ijtimoiy ishning zamonaviy shakllarining asosini tashkil etgan. Dastlabki davrlarda ijtimoiy yordam ko'rsatish ixtiyoriy va tasodifiy bo'lsa-da, keyinchalik jamiyatda ko'proq tizimlashtirilgan amaliyotlarga aylangan. 19-asrning oxiri va 20-asrning boshlarida, industrializatsiya va shaharlarning tez rivojlanishi, shuningdek,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi, ijtimoiy ishning kasb sifatida rivojlanishiga ehtiyojni yanada oshirdi. Xayriya va diniy qadriyatlar ta'sirida ijtimoiy ish professionalizatsiya bo'lib, muayyan metod va yondashuvlar bilan boshqarila boshladi. Bu davrda ijtimoiy ishchilar nafaqat ehtiyojmandlarga yordam berish, balki ijtimoiy muammolarni tahlil qilish, yechimlarni ishlab chiqish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan faoliyatlarni ham amalga oshirishga kirishdilar. Shunday qilib, xayr-ehson va diniy qadriyatlar, ijtimoiy ishning asosiy prinsiplariga aylanib, bu kasbning zamonaviy shakllanishiga muhim hissa qo'shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. moiy pedagogik faoliyatni tashkil etishga qratilgan jarayon mazmuni ‘’ maqola. Amonov Mirjon Namazovich.
2. O'zbekistonda ijtimoiy ishni tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish’’ maqola . Maftuna Subxonova Abbasova.
3. Ijtimoiy pedagogikani va ijtimoiy pedagogic faoliyat rivojining metodologik asoslar’’ maqola. To'laganov Dilfuza Rustamdjanovna .
4. ‘’Ijtimoiy ish to'g'risidagi’’ qonun
5. ‘’Ijtimoiy ish tarixi’’ kitobi F.D.Muzzafarov. X.R. Nafiddinov.